



O'ZBEK ESTRADA SAN'ATINING INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA IJTIMOY INTEGRATSIYADAGI AHAMIYATI

Rajabov Shaxzodbek Baxrom o'g'li

Urganch davlat pedagogika instituti San'atshunoslik
kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: shaxzodrajabov0104@gmail.com

Aminboyev Qodirbergan Olimboy o'g'li

Urganch davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi
yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

E-mail: qodirbekaminboyev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20021148>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

KEYWORDS

inklyuziv ta'lim, estrada san'ati, ijtimoiy integratsiya, ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlar, musiqa pedagogikasi, raqamli nota, ijtimoiy rehabilitatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek estrada san'atining zamonaviy inklyuziv ta'lim tizimidagi roli va uning ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlarni ijtimoiy integratsiyalashuvdagi strategik ahamiyati tadqiq etiladi. Estrada yo'nalishining yuqori kommunikativ xususiyatlari, uning akademik janrlardan farqli jihatlari va sog'lom tengdoshlar bilan ochiq raqobat muhitidagi samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, sohadagi metodik muammolar, xususan, nota yozuvlarining raqamli tahlili va ularning ijtimoiy rehabilitatsiyadagi o'rni yoritilgan.

Zamonaviy ta'lim paradigmasining ustuvor vazifalaridan biri - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning jamiyatga to'laqonli integratsiyalashuvi uchun adaptiv va teng huquqli muhit yaratishdir. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni [1] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli Qarori [2] ushbu sohadagi islohotlarning amaliy va metodologik poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Musiqa ta'limi, xususan, estrada yo'nalishi o'zining yuqori kommunikativ tabiati va moslashuvchanligi bilan ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlar uchun eng jozibador ijtimoiy rehabilitatsiya sohaslaridan biri hisoblanadi. Estrada san'ati akademik janrlardagi qat'iy texnik qoliplardan farqli o'laroq, ijodkorga o'z shaxsiyatini erkin namoyon etish imkonini beradi. Mazkur maqolada ilk bor o'zbek estrada janrining ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlar uchun "ijtimoiy lift" sifatidagi samaradorligi va metodik to'siqlar ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotni yoritishda tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik kuzatuv va sotsiologik so'rov metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, respublika miqyosidagi nufuzli estrada tanlovlari natijalari "case study" sifatida tahlil qilinib, ko'rish imkoniyati cheklangan ijrochilarning sog'lom tengdoshlari bilan raqobatbardoshlik darajasi baholandi [4].

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, estrada san'ati ko'rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun eng moslashuvchan ijodiy muhitdir. Stivi Uander, Rey Charlz va Andrea Bocelli kabi san'atkorlarning muvaffaqiyati shuni isbotlaydiki, estrada janri ijrochining vizual holatiga

emas, balki uning individual vokal tembri va musiqiy tafakkuriga tayanadi [5]. Bu xalqaro tajriba o'zbek estrada san'ati uchun ham metodik andoza bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Inklyuziv musiqa ta'limi jarayonida estrada yo'nalishining afzalligi uning texnologik va metodik moslashuvchanligidadir. Ko'rish imkoniyati cheklangan talabalar fortepiano, gitara yoki zamonaviy sintezatorlar orqali fazoviy eshitish va taktil hissiyotlarini jadal rivojlantiradilar. Musiqa bilan shug'ullanish ushbu toifadagi yoshlarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash bilan birga, ularning psixo-fiziologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi [6]. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, estrada musiqasi talabaning kognitiv qobiliyatlarini faollashtiradi va uning professional musiqiy muhitga moslashish vaqtini qisqartiradi.

Professional raqobat va ijtimoiy integratsiya transformatsiyasi. Inklyuziv ta'limning zamonaviy bosqichi imkoniyati cheklangan yoshlarning ijtimoiy faolligi oshganligi bilan xarakterlanadi. Uzoq yillar davomida "Iste'dodlar kamaligi" va "Yosh kitobxon" kabi maxsus festivallar asosiy ijodiy adaptatsiya maydoni bo'lib kelgan bo'lsa, bugungi kunda bu tendensiya sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Hozirgi kunda ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlar "Yoshlar ovozi" (Bo'zatov) kabi asosan sog'lom ijrochilar qatnashadigan ochiq professional platformalarda ham faol ishtirok etib, yuksak natijalarni qo'lga kiritmoqdalar.

P. Sorokinning ijtimoiy stratifikatsiya nazariyasiga ko'ra, san'at va ta'lim ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlar uchun eng samarali "ijtimoiy lift" vazifasini o'tamoqda [4]. Bunday muvaffaqiyatlar ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlarni "alohida ajratilgan qatlam" stereotipidan chiqarib, jamiyatning faol va teng huquqli a'zosiga aylantiradi. Natijada, yuksak darajadagi davlat mukofotlari ijodkor uchun o'z professional laboratoriyasini shakllantirishda muhim poymevor bo'lib xizmat qiladi [7].

Metodik to'siqlar va raqamli transformatsiya muammolari. Musiqa ta'limining fundamental asosi nota yozuvlariga tayanadi, biroq aynan shu nuqtada jiddiy metodik bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Mavjud "Screen reader" dasturiy ta'minotlari nota yozuvlarini grafik obyekt (image) sifatida qabul qiladi. Notalarning vizual-grafik tuzilishi raqamli tizimlar uchun mantiqiy-matnli qatlamga (textual layer/Unicode) ega emasligi sun'iy intellekt va nutq sintezatorlari uchun mantiqiy tahlil to'siqlarini yuzaga keltirmoqda. Ushbu texnik cheklov talabaning mustaqil ijodiy rivojlanish imkoniyatlarini pasaytiradi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun MusicXML formatidagi fayllarni mantiqiy-matnli tavsifga o'giruvchi innovatsion IT-yechimlarni yaratish talab etiladi [6].

Xulosa qilib aytganda, o'zbek estrada san'ati inklyuziv ta'lim tizimida muhim pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vosita hisoblanadi. U imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlarning ijodiy salohiyatini ochish, ularni jamiyat hayotiga faol jalb etish va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda samarali xizmat qiladi. Shu bilan birga, estrada san'ati orqali inklyuziv muhitda o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamkorlik kabi insoniy qadriyatlar shakllanadi. Natijada, bu jarayon ijtimoiy integratsiyani kuchaytirib, jamiyatda teng imkoniyatlar muhitini yaratishga yordam beradi. Takliflar:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Madaniyat vazirligi hamkorligida estrada yo'nalishidagi nota materiallari uchun har bir musiqiy belgini ovozli tarzda tushuntirib beruvchi maxsus milliy audio-metodik bazasini (LMS platformalariga integratsiya qilgan holda) shakllantirish.

Inklyuziv ta'lim oluvchi talabalar uchun o'qituvchi bilan individual ishlash soatlarini ko'paytirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish kiritish va ta'lim dasturlarini ularning idrok etish xususiyatlariga moslashtirish.

Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida nota yozuvlarini tahlil qilib, ularni tushunarli matnli tavsifga yoki ovozli-mantiqiy tahlilga o'giruvchi milliy dasturiy platformani ishlab chiqish va uni inklyuziv ta'lim muassasalariga joriy etish.

O'zbek estrada san'ati ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlar uchun ijtimoiy reabilitatsiyaning eng dinamik yo'nalishidir. Estrada janrining moslashuvchanligi talabalarning jamiyatga integratsiyalashuvini tezlashtiradi. Biroq, nota tizimining raqamli tahlili bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Estrada san'ati orqali ko'rish imkoniyati cheklangan yoshlarni ijtimoiy rag'batlantirish - ularni jamiyatning mustaqil va raqobatbardosh a'zosiga aylantirishning strategik yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi PQ-57-sonli Qarori.
4. Sorokin P. A. Social and Cultural Mobility. – Free Press, 1959. (Reprinted edition).
5. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi. – Toshkent: Musiqa, 2005.
6. Miller E. Music and the Visually Impaired: International Perspectives. – Oxford University Press, 2019.
7. Vygotskiy L. S. Osnovi defektologii. – Moskva: Prosvechenie, 2003.
8. Axmedova M. Inklyuziv ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
9. Zokirova M. O'zbek estrada san'ati tarixi. – Toshkent: San'at nashriyoti, 2015.

